



TOLERANCE AND FREEDOM OF CONSCIENCE AS THE MAIN COMPONENT OF SPIRITUALITY AND MORAL VALUES

Dilfuza Sharifovna Egamova

*Independent researcher at Andijan State Pedagogical University
Andijan, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Tolerance, freedom of conscience, spirituality, moral values, human rights, religious harmony, free thought, stability of society, spiritual harmony, social solidarity.

Received: 15.09.25

Accepted: 16.09.25

Published: 17.09.25

Abstract: This article analyzes the concepts of tolerance and freedom of conscience as a fundamental component of spirituality and moral values. The right of a person to choose their beliefs, freedom of thought, and the principles of religious harmony are explained by their role in ensuring social stability and spiritual harmony. It also reveals the historical roots of tolerance and its socio-philosophical significance in modern society.

BAG'RIKENGLIK VA VIJDON ERKINLIGI MA'NAVIYAT VA AXLOQIY QADRIYATLARNING ASOSIY KOMPONENTI SIFATIDA

Dilfuza Sharifovna Egamova

*Andijon davlat pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Andijon, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Bag'rikenglik, vijdon erkinligi, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, diniy totuvlik, erkin fikr, jamiyat barqarorligi, ma'naviy uyg'unlik, ijtimoiy hamjihatlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bag'rikenglik va vijdon erkinligi tushunchalari ma'naviyat hamda axloqiy qadriyatlarning asosiy komponenti sifatida tahlil qilinadi. Insonning e'tiqod tanlash huquqi, fikr erkinligi va diniy totuvlik tamoyillari ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy uyg'unlikni ta'minlashdagi o'rni bilan izohlanadi. Shuningdek, bag'rikenglikning tarixiy ildizlari hamda zamonaviy jamiyatda uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib beriladi.

ТОЛЕРАНТНОСТЬ И СВОБОДА СОВЕСТИ КАК ОСНОВНОЙ КОМПОНЕНТ ДУХОВНОСТИ И ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Дилфуза Шарифовна Эгамова

Независимый исследователь

Андижанского государственного педагогического университета

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Толерантность, свобода совести, духовность, нравственные ценности, права человека, религиозная гармония, свобода мысли, стабильность общества, духовная гармония, социальная солидарность.

Аннотация: В данной статье анализируются понятия толерантности и свободы совести как основных компонентов духовности и нравственных ценностей. Право человека на выбор вероисповедания, свобода мысли и принципы религиозного согласия объясняются их ролью в обеспечении социальной стабильности и духовной гармонии. Также раскрываются исторические корни толерантности и ее социально-философское значение в современном обществе.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim shartlaridan biri insonlar o'rtasida sog'lom, adolatli va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarning qaror topishidir. Bu jarayonda bag'rikenglik (tolerantlik) va vijdon erkinligi tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Falsafiy nuqtai-nazardan, bag'rikenglik insonning turli qarash, e'tiqod, urf-odat va qadriyatlarga nisbatan hurmat va sabr bilan munosabatda bo'lishini bildiradi. Vijdon erkinligi esa shaxsning diniy yoki dunyoviy qarashlarini tanlash va ifodalashdagi erkinligini anglatadi. "Har ikki tushuncha insonning sha'ni va qadr-qimmatini tan olishga asoslangan umuminsoniy qadriyatdir"[1]. Falsafiy jihatdan bag'rikenglik jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy totuvlik va o'zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu qadriyat turli madaniyat va dunyoqarash egalari o'rtasidagi to'qnashuvlarni bartaraf etishning eng samarali yo'lidir. Vijdon erkinligi esa insonning ichki dunyosi va ma'naviy tanlovini hurmat qilish tamoyiliga asoslanadi. Kant falsafasida bu tamoyil "insonni vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida ko'rish" shaklida ifodalangan bo'lib, u shaxs erkinligini mutlaq qadriyat darajasiga ko'taradi.

Bag'rikenglik va vijdon erkinligi mavjud bo'lgan jamiyatda ijtimoiy munosabatlar sog'lom va barqaror bo'ladi. Bunday muhitda odamlar o'zaro ishonch asosida hamkorlik qiladi, turli qarashlar boylik sifatida qabul qilinadi. Bu esa ijtimoiy ziddiyatlarning oldini oladi, hamkorlik va madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Sotsiologik jihatdan bu "ijtimoiy kapital"ni oshiradi, falsafiy jihatdan esa umuminsoniy qadriyatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Bag'rikenglik jamiyatda nizolarni kamaytiruvchi va ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy jihatdan u pluralizm g'oyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, har xil dunyoqarash va qadriyatlarning bir makonda tinch-totuv yashashiga zamin yaratadi. Aks

holda, turli qarashlar to'qnashuvi ijtimoiy ziddiyatlar, hatto mojarolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois bag'rikenglik nafaqat axloqiy sifat, balki fuqarolik madaniyatining ajralmas qismi sifatida ham ahamiyatlidir. Masalan, multikultural jamiyatlarda bag'rikenglik fuqarolar o'rtasida millatlararo va konfessiyalararo ishonchni mustahkamlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik va vijdon erkinligi qadimiy diniy-falsafiy manbalardan tortib, zamonaviy falsafa va huquqiy adabiyotlarga keng yoritilgan. L.Soskovets, N.Knyazeva, I.Saifnazarov, Q.Nazarov M.Qaxxorova, B.Absattorovlarning tadqiqotlarda bag'rikenglik va vijdon erkinligi ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida shakllanishi, jamiyatdagi totuvlik, inson huquqlari va erkinlikni ta'minlashdagi roli alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, tarixiy jarayonlarda ularning cheklanishi va rivojlanish dinamikasi ham ilmiy tahlil ob'ekti sifatida o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Vijdon erkinligi – insonning ruhiy va axloqiy erkinligini ta'minlovchi asosiy huquqdir. Bu huquq insonning ichki dunyosida mavjud bo'lgan e'tiqod va prinsiplarni tanlashdagi mustaqilligini anglatadi. Vijdon erkinligi xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida asosiy insoniy huquqlardan biri sifatida 1-moddasida e'tirof etilgan "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur"[2]. Falsafiy nuqtai nazardan, vijdon erkinligi shaxsning axloqiy sub'ekt sifatida o'zini o'zi anglashini va ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirokini ta'minlaydi. Shu ma'noda, u jamiyatdagi insonlar o'rtasida o'zaro hurmat va tenglik muhitini shakllantiradi. Bag'rikenglik va vijdon erkinligi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birisiz to'liq namoyon bo'la olmaydi. Bag'rikenglik vijdon erkinligining amaliy ifodasi bo'lib, insonlarning o'z e'tiqodi va dunyoqarashini erkin ifoda etishiga imkon yaratadi. Vijdon erkinligi esa bag'rikenglik uchun zarur huquqiy va ma'naviy poydevorni ta'minlaydi. Shu sababli, bu ikki tushuncha jamiyatdagi axloqiy-insoniy munosabatlar tizimining ikki tayanch ustuniga o'xshaydi.

Jamiyatdagi axloqiy-insoniy munosabatlarning sifatini oshirishda bag'rikenglik va vijdon erkinligi tarbiya va ma'rifat bilan chambarchas bog'liqdir. Agar yosh avlodda kichikligidan boshqacha fikrlovchilarga hurmat bilan qarash, ularning huquqlarini tan olish, diniy va madaniy xilma-xillikka ochiq bo'lish sifatlari shakllantirilsa, bu kelgusida ijtimoiy kelishuv va barqarorlikning kafolatiga aylanadi. Shu jihatdan, ta'lim-tarbiya jarayonida bag'rikenglik va vijdon erkinligi g'oyalarini singdirish strategik ahamiyatga ega. Bag'rikenglik va vijdon erkinligi nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki shaxsiy kamolot uchun ham muhimdir. Chunki u insonning ichki ma'naviy erkinligini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi, shaxsning o'z qadr-qimmatini anglashiga yordam beradi. Inson boshqalarning huquq va erkinliklarini tan olgan

holda, o'z erkinligining ham chegarasini biladi. Bu esa axloqiy javobgarlik hissini oshiradi va insonlar o'rtasida konstruktiv muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Bugungi globallashuv davrida bag'rikenglik va vijdon erkinligi xalqaro tinchlik va hamkorlikning asosiy omillaridan biriga aylangan. Turli din, madaniyat va siyosiy tizimlarga ega xalqlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda bu qadriyatlar diplomatik va insoniy ko'prik vazifasini bajaradi. Shu bois ko'plab zamonaviy falsafiy maktablar, jumladan, liberalizm, kosmopolitizm va kommunikativ etika nazariyalarida bag'rikenglik va vijdon erkinligi global fuqarolik madaniyatining ajralmas komponentlari sifatida talqin qilinadi. Bag'rikenglik va vijdon erkinligi – jamiyatdagi axloqiy-insoniy munosabatlarning uyg'unlashuvini ta'minlaydigan, nizolarni kamaytiradigan, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlovchi eng muhim ma'naviy-axloqiy tamoyillardir. Ular birgalikda insonlarning ichki erkinligini, o'zaro hurmatini va tinch-totuv hayotini ta'minlaydi. Shu bois, bu qadriyatlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham rivojlantirish, ularni tarbiya, siyosat va huquqiy tizimning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish zamonaviy jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun zarur shartdir.

Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy hayotini tashkil etuvchi eng muhim tushunchalar bo'lib, insonning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijtimoiy-falsafiy mazmuni shundaki, bu tushunchalar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, madaniy merosi va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviyat – insonning ichki dunyosini, uning ruhiy va intellektual qiyofasini belgilovchi, ezgulik va yuksaklik sari yo'naltiruvchi ma'naviy-ruhiy holatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Axloqiy qadriyatlar esa, "ma'naviyatning amaliy namoyon bo'lish shakli bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy mezon va normalarni o'z ichiga oladi"[3].

Ma'naviyat tushunchasi falsafiy nuqtai nazardan insonning o'zini anglash, maqsad va idealga intilish, mavjudlikdagi o'rnini belgilash jarayoni sifatida qaraladi. Ma'naviyat moddiy manfaatlardan ustun bo'lgan ichki ehtiyojlarni – adolat, haqiqat, erkinlik, mehr-oqibat kabi oliy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. U jamiyatning ijtimoiy hayotida uyg'unlikni ta'minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ma'naviyat ko'pincha "madaniyatning ruhiy o'lchovi" sifatida talqin qilinadi, chunki u nafaqat madaniy merosni saqlaydi, balki uni zamon talablari asosida yangilaydi.

Axloqiy qadriyatlar – bu jamiyat va shaxs hayotidagi xulq-atvor mezonlari bo'lib, ular odo-axloq normalarida, urf-odat va an'analarda, ijtimoiy institutlar faoliyatida ifodalanadi. "Ular tarixiy tajriba va madaniy meros asosida shakllanib, insonlarning o'zaro hurmat, adolat,

halollik, fidoiylilik kabi tamoyillarga amal qilishini ta'minlaydi. Axloqiy qadriyatlar shaxs ongida barqaror axloqiy qarashlar tizimini yaratadi, bu esa o'z navbatida jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ishonch va birdamlikni mustahkamlaydi"[4]. Ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mazmuni inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish, shaxsning ruhiy kamolotini ta'minlash va ijtimoiy tizimning barqarorligini saqlash bilan uzviy bog'liqdir. Ular jamiyatning madaniy, siyosiy va iqtisodiy hayotida barqarorlikni ta'minlovchi asosiy tamoyillar bo'lib, tarixiy taraqqiyot davomida yangilanib, boyib boradi.

Ontologik nuqtai nazaridan bag'rikenglik va vijdon erkinligi inson tabiatining asosiy atributlari sifatida namoyon bo'ladi. Inson tafakkuri, e'tiqodi va ma'naviy qarashlari xilma-xilligi – bu tabiiy ijtimoiy hodisa. Shunday ekan, bag'rikenglik shaxslar o'rtasida mazkur farqlarni tan olish va hurmat qilish tamoyilini ifodalaydi. Vijdon erkinligi esa insonning ichki ma'naviy olamida e'tiqod, dunyoqarash va axloqiy qarorlarni erkin tanlash imkoniyatini anglatadi. Ontologik jihatdan bag'rikenglik – bu “ijtimoiy tizimning integrativ omili bo'lib, turli madaniyatlar, dinlar va e'tiqodlar o'rtasida ziddiyat emas, balki o'zaro boyitish va hamkorlik imkoniyatini yaratadi”[5]. Vijdon erkinligi esa shaxsning ichki erkinligini ta'minlaydi, bu erkinliksiz na haqiqiy ma'naviy rivojlanish, na mustahkam axloqiy pozitsiya yuzaga keladi.

Aksiologik nuqtai nazaridan bag'rikenglik va vijdon erkinligi – umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. Ular nafaqat shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtiradi, balki jamiyatning madaniy-ma'naviy yuksalishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bag'rikenglikning aksiologik o'rni – “ijtimoiy qadriyatlar tizimida u konfliktlarni bartaraf etish, o'zaro tushunishni kuchaytirish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish mezonini sifatida xizmat qiladi. Vijdon erkinligi esa shaxsning axloqiy mas'uliyatini oshiradi, chunki erkin tanlov mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqdir”[6]. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu qadriyatlar “Vijdon erkinligi to'g'risida”gi Qonunda ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u jamiyatning huquqiy va ma'naviy negizlaridan biridir.

Vijdon erkinligi tushunchasi ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy erkinliklar tizimida muhim falsafiy kategoriya sifatida shakllanib kelgan. U shaxsning o'z e'tiqodi, dunyoqarashi, ma'naviy yo'nalishlari va axloqiy qarorlarini mustaqil belgilash huquqini anglatadi. Vijdon erkinligi nafaqat diniy tanlov erkinligi, balki insonning ichki ruhiy dunyosini, e'tiqodini, ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlarini shakllantirish jarayonida poydevor vazifasini bajaradi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, vijdon erkinligi shaxsning ichki dunyosi bilan jamiyatning axloqiy normalari o'rtasida uyg'unlik hosil qilishga xizmat qiladi. Har qanday jamiyat o'z

fuqarolarining axloqiy yetukligini ta'minlash uchun avvalo ularning mustaqil fikrlash, tanlash va e'tiqod qilish huquqini kafolatlaydi. Bu erkinlik insonni tashqi majburlashdan himoya qilib, uning ichki axloqiy "men"ini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ichki axloqiy dunyo — bu insonning ma'naviy qadriyatlari, hayotiy tamoyillari, e'tiqod tizimi va halollik, adolat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni o'zida mujassam etgan ruhiy makonidir. Vijdon erkinligi ana shu makonning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Agar inson o'z e'tiqodini erkin tanlay olsa, u o'zining axloqiy me'yorlarini ongli ravishda, ichki ishonch asosida belgilaydi. Aksincha, majburiy e'tiqod yoki ideologiya insonda soxta axloqiy tasavvurlarni shakllantiradi va uning ichki uyg'unligini putur yetkazadi. Falsafada vijdon erkinligi Suqrot, Volter, Kant, Karl Yaspers etikasi bilan chambarchas bog'liq tushuncha sifatida qaraladi. Suqrot vijdonni insonning ichki "daimon"i sifatida tushuntirgan va shaxsning o'z e'tiqodiga sodiq qolishini oliy burch deb bilgan. Volter (1694–1778) – fikr va vijdon erkinligi insoniyat taraqqiyoti uchun eng asosiy shartlardan ekanini yozgan. Immanuel Kantning fikricha, insonning axloqiy qadriyati uning "katta qonuni" – ichki axloqiy qonun va erkin iroda bilan belgilanadi. Bu qonun faqat vijdon erkinligi mavjud bo'lganda amalda ishlaydi, chunki axloqiy qarorlar majburlash emas, balki ongli tanlov natijasidir deb hisoblaydi. Karl Yaspers (1883–1969) – Vijdon erkinligini insonning o'zini anglash va ma'naviy javobgarlikni his etishning "chegarasi" sifatida talqin qilgan.

Vijdon erkinligi ijtimoiy tizim barqarorligi va adolat tamoyillarining asosiy kafolatlaridan biridir. Chunki insonlar o'z axloqiy qarashlarini erkin shakllantira olgan jamiyatda zo'ravonlik, majburiy e'tiqod yoki fikr monopoliyasi kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Demokratik jamiyatlarda vijdon erkinligi inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanadi. Bu erkinlik diniy va dunyoviy e'tiqodlar o'rtasida tinch-totuv yashash imkonini beradi. Tarixiy tajribalar, jumladan, diniy urushlar va mafkuraviy repressiyalar, vijdon erkinligi cheklangan jamiyatlarda axloqiy tanazzul va ijtimoiy ziddiyatlar kuchayishini ko'rsatadi.

Ma'naviy rivojlanish jarayoni insonning o'zligini anglash va o'z hayotiy yo'lini tanlash erkinligiga bog'liq. Vijdon erkinligi shaxsga turli axloqiy va diniy manbalarni o'rganish, ularni tahlil qilish, solishtirish va ongli tanlov qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayon insonni biryoqlama fikrlashdan, dogmatik yondashuvlardan himoya qiladi. O'zbekistonda ham vijdon erkinligi mustaqillik yillarida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"[7]gi qonun hamda Konstitutsiyada bu huquq kafolatlangan bo'lib, u jamiyatda turfa e'tiqod egalari o'rtasida totuvlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Vijdon erkinligining ontologik, aksiologik, pragmatik jihatlarini umumlashtirganda uning mohiyatini to'liq anglanadi. Ontologik va aksiologik jihatlarini yuqorida ko'rib chiqqan edik. Taniqli faylasuf olim I.Saifnazarov vijdon erkinligining pragmatik jihatini shunday izohlaydi: "Vijdon erkinligi amaliy hayotda ijtimoiy totuvlik, diniy bag'rikenglik va barqarorlikni ta'minlaydi. Bu erkinlikni kafolatlash orqali davlat fuqarolarning o'zaro ishonchini kuchaytiradi va ijtimoiy kelishmovchiliklarning oldini oladi"[8]. Vijdon erkinligi – insonning ichki axloqiy dunyosini shakllantiruvchi asosiy omildir. U shaxsning ma'naviy kamolotida, jamiyatning barqaror taraqqiyotida va ijtimoiy bag'rikenglikning qaror topishida beqiyos ahamiyatga ega. Vijdon erkinligi inson erkinligining eng chuqur ko'rinishlaridan biri bo'lib, ichki e'tiqod va tashqi xatti-harakatlar uyg'unligini ta'minlaydi. Demak, vijdon erkinligini ta'minlash – nafaqat huquqiy majburiyat, balki jamiyatning ma'naviy yuksalishiga olib keluvchi strategik vazifadir.

"Ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi – bu insonning aqliy, ma'naviy va axloqiy kamolotiga asoslangan, ijtimoiy taraqqiyotning bosh omili sifatida bilim va ma'rifatni ustuvor qo'ygan jamiyat modelidir. Ushbu konsepsiyada asosiy maqsad – har bir fuqaroning erkin fikrlash huquqini, e'tiqod erkinligini, o'z qarashlarini erkin ifoda etish imkoniyatini ta'minlash bilan birga, ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashdir. Shu nuqtai nazardan, bag'rikenglik va vijdon erkinligi ushbu modelning ajralmas falsafiy-axloqiy poydevorlaridan hisoblanadi.

Har qanday voqelik aynan ma'naviyat asosida shakllanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida qayd etganidek: "Ma'naviyat jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha mustahkam bo'ladi"[9]. Bag'rikenglik ma'rifatli jamiyatda faqat murosas yoki sabr-toqat emas, balki faol ijobiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha turli millat, din, madaniyat va e'tiqod vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning dunyoqarashiga ochiq bo'lishni anglatadi. Ma'rifatli jamiyat modelida, haqiqiy taraqqiyot faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki insonlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmat muhitini yaratish orqali ham amalga oshadi.

Bag'rikenglik qadriyati ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida xizmat qiladi. Chunki diniy, etnik yoki madaniy tafovutlar mavjud bo'lgan jamiyatlarda o'zaro tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun nafaqat qonuniy mexanizmlar, balki chuqur axloqiy ong ham talab etiladi. Shu ma'noda, bag'rikenglikni o'zida mujassam etgan fuqarolik madaniyati jamiyatni mojarolar emas, balki hamkorlik orqali rivojlanishga yo'naltiradi.

"2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi 3 yil davomida diniy

bag'rikenglikni ta'minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi: BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi"[10]. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

Vijdon erkinligi – insonning ichki e'tiqodi, diniy yoki dunyoviy qarashlarini erkin tanlash va ularni majburlovsiz amalga oshirish huquqidir. Ma'rifatli jamiyatda vijdon erkinligi nafaqat huquqiy kafolat, balki insonning ma'naviy qadr-qimmatini sifatida e'tirof etiladi. Bu qadriyat shaxsni ichki ruhiy mustaqillikka yetaklaydi, uni tashqi bosimlardan himoya qiladi. Vijdon erkinligi bag'rikenglik bilan uzviy bog'liqdir: agar jamiyatda vijdon erkinligi bo'lmasa, bag'rikenglikning haqiqiy ijtimoiy amaliyoti ham bo'lishi qiyin. Shu sababli, ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi bu ikki tushunchani bir-birini to'ldiruvchi ikki qanot sifatida ko'radi.

Bizningcha, bag'rikenglik va vijdon erkinligining qadriyat sifatida qaror topishi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: Jamiyatda diniy-ekstremistik va radikal qarashlarga qarshi immunitet shakllanadi; Millatlararo va dinlararo munosabatlar ijobiy ruhda rivojlanadi; Shaxs o'z e'tiqodini erkin tanlagan holda, jamiyatning faol va mas'uliyatli a'zosiga aylanadi; Axborot makonida sog'lom, muvozanatli fikrlar ustuvor bo'ladi.

“Ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi[11]da bag'rikenglik va vijdon erkinligi insonning ma'naviy kamolotini ta'minlovchi, ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi asosiy qadriyatlardir. Ular bir-birini to'ldirib, jamiyatda erkin fikrlash, madaniy xilma-xillik va o'zaro hurmat muhitini yaratadi. Bunday jamiyatda bilim va ma'rifat bilan bir qatorda, insoniylik, adolat va hamkorlik tamoyillari ustuvor bo'ladi. Shu tariqa, bag'rikenglik va vijdon erkinligi nafaqat huquqiy me'yor, balki ma'rifatli jamiyatning axloqiy-falsafiy yuragi sifatida qoraladi.

Ijtimoiy barqarorlik kontekstida bu tamoyillar o'zaro ishonch kapitalini mustahkamlaydi. Turli millat va din vakillari bir hududda tinch-totuv yashaganda, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish uchun qulay muhit vujudga keladi. Masalan, O'zbekiston tajribasida, Konstitutsiyada vijdon erkinligi kafolatlangani hamda bag'rikenglik siyosati davlat darajasida qo'llab-quvvatlanishi tufayli turli diniy konfessiyalar tinch-totuv yashab kelmoqda. “Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda”[10]. Har bir diniy

jamoa o'z marosimlarini erkin o'tkazishi, ibodat joylarini saqlashi va diniy ta'limotlarini targ'ib qilishi mumkin. Bu esa jamiyat ichidagi ishonch va birdamlikni oshiradi.

Shuningdek, bag'rikenglik va vijdon erkinligi madaniy xilma-xillikni ijtimoiy boylikka aylantiradi. Diniy konfessiyalararo muloqot va hamkorlik nafaqat diniy sohada, balki ijtimoiy, ma'rifiy va xayriya ishlarida ham samarali natijalar beradi. Turli konfessiyalar vakillari umumiy muammolar – kambag'allik, savodsizlik, ekologiya yoki yoshlar tarbiyasi kabi masalalarda hamkorlik qilganda, jamiyatning ijtimoiy immuniteti kuchayadi. Bu tamoyillarning asosiy falsafiy mohiyati shundaki, ular insonning ichki erkinligi va tashqi hurmat muhitini uyg'unlashtiradi. Bag'rikenglik boshqalarning mavjudligini tan oladi, vijdon erkinligi esa shaxsning o'zligini namoyon etish imkonini beradi. Agar bag'rikenglik bo'lmasa, vijdon erkinligi amalda to'liq ishlamaydi, chunki e'tiqod erkinligini hurmatsizlik va kamsitish bo'g'adi. Aksincha, vijdon erkinligi bo'lmasa, bag'rikenglik ham yuzaki bo'lib qoladi, chunki odamlar o'z tanlovini erkin amalga oshira olmaydi.

Shu bois, ularni uyg'un holda rivojlantirish diniy konfessiyalararo tinchlikning uzoq muddatli kafolatidir. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayonida bag'rikenglik madaniyatini singdirish, diniy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy muloqot maydonlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari diniy erkinlikni qonuniy asosda qo'llab-quvvatlashi, ommaviy axborot vositalari esa diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishi muhim. Bag'rikenglik va vijdon erkinligi bir-birini to'ldiruvchi, diniy konfessiyalararo tinchlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi ikki poydevordir.

Zamonaviy axborot makonida vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik qadriyatlari tobora ko'proq ma'naviy xavf ostida qolmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va global kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi bilan birga, bu qadriyatlarga qarshi qaratilgan manipulyativ axborot oqimlari ham kuchayib borib, manipulyatsiyalar, avvalo, turli diniy va milliy guruhlar o'rtasida ishonchsizlik, shubha va ziddiyat urug'larini sochishga, jamiyatdagi tinch-totuvlik va barqarorlikni izdan chiqarishga xizmat qiladi. "Manipulyatsiya – bu ongli ravishda axborotni buzib ko'rsatish, noto'g'ri talqin qilish yoki bir tomonlama yoritish orqali insonlarning fikrini, qarashlarini va xatti-harakatlarini boshqarishga qaratilgan jarayondir"[12]. Vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik kontekstida manipulyatsiyalar odatda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Diniy konfessiyalar haqida noto'g'ri, biryoqlama yoki soxta ma'lumotlar tarqatish. Bunday axborotlar ayrim guruhlarini "xavf manbai" sifatida ko'rsatib, jamiyatda ularga nisbatan salbiy stereotiplarni shakllantiradi. Bu jarayonda "soxta yangiliklar" (fake news) va manipulyativ maqolalar diniy mojarolarni sun'iy ravishda kuchaytiradi. Natijada, vijdon erkinligining asosiy

tamoyili – e’tiqod tanlash va uni erkin ifoda etish huquqi – amalda zaiflashadi. Ijtimoiy tarmoqlarda nafratli nutq (hate speech) va diniy adovatni qo‘zg‘atishga qaratilgan kontentning tarqalishi. Bunday materiallar diniy bag‘rikenglikni zaiflashtirib, qarama-qarshi konfessiyalar orasida “biz” va “ular” degan keskin chiziq chizadi. Bu holat jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikni buzib, kelishmovchiliklarni kuchaytiradi.

“Axborot-provokatsiya” usuli bilan diniy marosimlar, rasm-rusumlar yoki diniy yetakchilar faoliyatini masxara qilish yoki obro‘sizlantirish. Bu usul orqali diniy qadriyatlarga nisbatan hurmatsizlik targ‘ib qilinadi, natijada konfessiyalararo ishonch yemiriladi. Diniy ekstremizm va radikalizm targ‘ibotini yashirin shaklda tarqatish ham manipulyatsiyaning xavfli ko‘rinishlaridan biridir. Bu holatda manipulyatorlar bag‘rikenglik va vijdon erkinligi tamoyillarini “niqob” sifatida ishlatib, radikal g‘oyalarni qonuniy deb ko‘rsatishga urinadilar.

“Bot”lar va “troll”lar orqali sun’iy ijtimoiy muhit yaratish. Ular ma’lum diniy masalalarda keskin pozitsiyalarni ko‘tarib chiqib, ijtimoiy tarmoqlarda keng ko‘lamli bahs-munozaralarni chaqiradi. Bu munozaralar ko‘pincha keskinlashib, nafaqat onlayn, balki real hayotda ham ijtimoiy bo‘linishlarga olib keladi. Bunday manipulyatsiyalarni samarali tahlil qilish uchun ularning psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini tushunish zarur. Psixologik jihatdan, “manipulyatsiya odamlarning qo‘rquv, g‘azab va beqarorlik kabi kuchli hissiyotlarini qo‘zg‘atishga asoslanadi. Ijtimoiy jihatdan esa, u mavjud ziddiyat va stereotiplardan foydalanib, ularni kuchaytiradi”[13]. Shu tarzda, axborot makonida yaratilgan soxta manzaralar jamiyatni ichidan bo‘lib tashlashga xizmat qiladi.

Vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglik qadriyatlariga qarshi manipulyatsiyalar ko‘pincha geosiyosiy maqsadlarga ham bo‘ysundiriladi. Xalqaro maydonda ayrim kuchlar boshqa davlatlarning ichki barqarorligini izdan chiqarish uchun diniy masalalarni manipulyativ vosita sifatida ishlatadilar. Masalan, bir davlatda diniy ozchilikning huquqlari buzilayotgandek ko‘rsatilib, bu mavzu siyosiy bosim yoki tashqi aralashuv vositasiga aylantiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bag‘rikenglik va vijdon erkinligi zamonaviy ma’naviy-axloqiy tizimning poydevoriy ustunlaridan biri bo‘lib, ular shaxs va jamiyat hayotining barcha jabhalarida barqarorlik, hamjihatlik va o‘zaro hurmatni ta’minlaydi. Bag‘rikenglik – bu diniy, milliy, madaniy yoki dunyoqarashdagi farqlarga nisbatan toqat va hurmat bilan munosabatda bo‘lish fazilatidir. U insonlarning bir-birini teng huquqli shaxs sifatida qabul qilishini, turfa e’tiqod va fikrlarning bir jamiyatda tinch-totuv yashashini ta’minlaydi. Vijdon erkinligi esa shaxsning ichki axloqiy qarashlari, diniy yoki dunyoviy e’tiqodini tanlash, uni amalda ifoda etish yoki rad etish huquqini bildiradi. Bu huquq demokratik jamiyatlarda inson sha’ni va erkinligining kafolati hisoblanadi. Ma’naviyat tizimida bag‘rikenglik va vijdon

erkinligi faqat shaxsiy fazilat sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarning me'yori, madaniyatlararo muloqotning asosi, hamkorlik va taraqqiyotning garovi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning mavjudligi jamiyatni ichki nizolar, ekstremizm va kamsitish kabi xavflardan himoya qiladi, yo'qligi esa ijtimoiy ziddiyatlar va beqarorlikni kuchaytiradi. Shu bois ta'lim, madaniyat, qonunchilik va ommaviy axborot vositalarida bu qadriyatlarni keng targ'ib etish, ularni yosh avlod ongida chuqur singdirish strategik ahamiyat kasb etadi. Natijada, bag'rikenglik va vijdon erkinligi yuksak ma'naviyatli, axloqiy jihatdan yetuk va ijtimoiy mas'uliyatli jamiyat qurishda asosiy komponent sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Mavzuni o'rganish natijasida quyidagi amaliy takliflar ilgari surildi:

1. Ta'lim tizimiga integratsiya – Bag'rikenglik va vijdon erkinligi g'oyalarini umumta'lim va oliy ta'lim dasturlariga falsafiy va huquqiy asoslarda kiritish, yoshlar ongida tolerantlikni mustahkamlash.
2. Dinlararo muloqotni rivojlantirish – Turli diniy konfessiyalar va madaniyatlar o'rtasida muloqot maydonlarini yaratish orqali ijtimoiy totuvlikni kuchaytirish.
3. Huquqiy-ma'naviy targ'ibot – Inson huquqlari, vijdon erkinligi va bag'rikenglik masalalarini ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish.
4. Mahalliy hamjamiyatlarda qo'llash – Bag'rikenglik tamoyillarini mahalla, jamoat tashkilotlari va ijtimoiy institutlar faoliyatida amaliy dastur sifatida joriy etish.
5. Ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish – Bag'rikenglik va vijdon erkinligining falsafiy, huquqiy va axloqiy jihatlarini xalqaro tajriba bilan solishtirgan holda yanada keng o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Сосковец Л.И. Религиозная толерантность и свобода совести: история и теория вопроса. // Социальноэкономические и гуманитарные науки. Философия, этика, религиоведение. 2004. Т. 307. № 2. –С. 79.
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 á(Sh) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi 1-modda.
3. Nazarov Q.N., To'xtayev H.P. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. Darslik. – Toshkent.: "Universitet", 2022. – B.56.
4. Абсатторов Б.М. Инсон ахлоқий камолотида мезон ва меъёр муаммосининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Дисс... –Тошкент.: "IMPRESS MEDIA", 2022. – Б. 113.
5. Давронов З. Диалектика: қонунлар, категориялар, тамойиллар, билиш назарияси. Монография / – Тлшкент.: "Iqtisod-moliya", 2024. – Б.89-90.

6. Nazarov Q.N., To‘xtayev H.P. Aksiologiya: Qadriyatlar falsafasi. Darslik. – Toshkent.: “Universitet”, 2022. – B.64.
7. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi 05.07.2021 yildagi O‘RQ-699-son O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5491534>
8. Saifnazarov I. Pragmatizm – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining falsafasi sifatida. / Monografiya. – Toshkent, «OLTIN QALAM NASHRIYOTI» 2023. – B.122-123.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023.
10. <https://strategy.uz/index.php?news=1014&lang=uz>
11. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 71-maqsad. <https://lex.uz/docs/-5841063>
12. Князева И. В. Манипуляция общественным сознанием: сущность, исторические формы, трансформация: социально-философский анализ: дис. ... канд. филос. наук. – Воронеж, 2011. – С.14.
13. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. –М.: “Изд-во МГУ”, 1997.